

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARGA TIKUVCHILIK  
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI O'TISHNING AFZALLIKLARI VA UNING  
HAYOTDAGI ROLI**

**Shog'ulomova Zilola Saidahmatovna**  
*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar  
uchun ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar  
maktabi kasb-hunar ta'limi ustasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchilarga tikuvchilik to'garak mashg'ulotlari o'tishning afzalliklar va uning hayotdagi roli haqida so'z boradi.

**Kalit so'z:** O'qituvchi, o'quvchi, intizom, mehr, e'tibor, g'amxo'rlik, mashg'ulot, to'garak

Hozirgi kunda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda ular bilan olib borilayotgan to'garaklarning alohida o'rni, ahamiyati bor. Bu borada imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar o'ziga xos mas'uliyatni talab etadi. O'quvchilarni to'garaklarga jalb etishning birinchi qoidasiga ko'ra avvalo o'qituvchi yoki ishlab chiqarish ta'limi ustasi o'quvchining mehrini qozona olishi kerak. Tarbiyaning bosh mezoni bu mehrdir. Bolaga ko'rsatilgan mehr, e'tibor shak-shubhasiz uning tarbiyasi, o'rganadigan bilimining samarasini kafolatidir.

O'quvchining to'garak mashg'ulotlarida faol bo'lishi, qiziqishlarining o'sishida uning o'z kuchiga ishonchi katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchining dadilligi va jur'atliligi – uning uchun ulkan baxtdir.

Imkoniyati cheklangan bolalar huddi erkatoy va o'ta g'amxo'rlik ko'rsatilgan bolalar kabi o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Har qanday sharoitda ham bola o'z o'qituvchisiga, unga to'garak mashg'ulotlarini o'tayotgan ustoziga suyanishi kerak. To'garak mashg'ulotlarini olib borishda maqtov va rag'bat eng afzal intizomiy choradir. Agar o'quvchi to'garak mashg'ulotlariga qiziqish bildirmasa, unga mashg'ulotning qanchalik afzal ekanligini tushuntira bilish va amaliyotga jalb qilish kerak. To'garak mashg'ulotlarini olib borish jarayonida o'qituvchilar uchta asosiy ko'nikmalarni egallashlari lozim:

O'quvchini to'garak mashg'uloti davomida eshita olish, ya'ni tinglay olish ko'nikmasi; O'quvchi tushinishi uchun o'z shaxsiy ehtirosi va so'zlarini tushunarli ifoda qila olish ko'nikmasi;

O'quvchini katta va kichik yutuqlari bilan maqtash va uni bu yutuqlari bilan mag'rurlanishiga imkon yaratib berish kerak. O'quvchi to'garak mashg'ulotlari davomida olgan bilimlari, muvaffaqiyati boshqalarga qanchalar kichik bo'lib tuyulmasin, siz uchun ular ulkandir. Bizning o'quvchilarimiz boshqacha sur'atda ulg'ayadilar, ular ba'zi ko'nikmalarni kechroq o'zlashtiradilar, ba'zilarini esa o'zlashtirishda qiynaladilar, biroq oldinga intilishda qo'yilgan har qanday qadam bu bayramdir! O'quvchingizning yangi harakati, so'zi, tabassumi, kutilmagan muloyimligi, o'rgangan mashg'uloti bular bizning kichik

mo'jizalarimiz desak adashmagan bo'lamiz. Bunday xursandchiliklarni yon atrofidagi do'stlari bilan o'rtoqlashish o'quvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi barchamizga ma'lum. Eng asosiysi, o'z o'quvchilaringizni to'garak mashg'ulotlaridagi o'rgangan bilimlari bilan faxrlaning, chunki ular hammasini his qiladi. O'quvchilar to'garak mashg'ulotlarida tikuvchilik, pazandachilik, to'quvchilik yoki boshqa zamonaviy kasblar bilan shug'ullanar ekanlar, asta-sekin bu ularning sevimli mashg'ulotiga aylanib boradi. Misol tariqasida "to'quvchilik" to'garagini oladigan bo'lsak, qo'lida to'qish bu ota-bobolarimiz tomonidan bizgacha shakllanib kelgan hunar turi hisoblanadi. To'qish jarayoni u qadar murakkab bo'limganligi, jarayonning qo'l harakati bilan bir yerda o'tirgan holatda olib borilishi zaif ko'rvuchi o'quvchilarning bu to'garakda qiynalmasdan mashg'ulotlar olib borishlari uchun qulay sharoit yaratadi. To'qish mashg'ulotlarida qatnashish kasbiy hamda aqliy faoliyatni yaxshilashda ko'maklashadi. To'qish asablarni tinchlantirish uchun ham foydalidir. Bu to'garakning maqsadi imkoniyati cheklangan o'quvchilarimizni kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishi va hayot yo'lini belgilab olishida yordam berishdir.

Albatta, yoshlarni bo'sh vaqtlarida mehnatga jalb etish, ko'plab yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. O'quvchilarni o'ziga, ertangi kunga bo'lgan ishonchini o'stiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. X.X.Maqsdova "Barkamol insonni shakllantirishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'rni va roli".
2. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning KHM qoshida ochilgan "Tikuvchilik" to'garak mashg'ulotidan olingan fikr mulohazalar.